

BOBUR ILMIY MEROSINING BUGUNGI KUN ILM-FAN
TARAQIYOTIDAGI O'RNI

Qoraxo'jayev Saydullo

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti 3 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bobur ilmiy merosining bugungi kun ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni haqida so'z boradi. Zahiriddin Muhammad Bobur yoshligidan ilimga chanqoq bo'lib, o'z tengdoshlari orasida ajralib turgan shaxs bo'lgani. Bobur barcha temuriy shahzodalar kabi maxsus tarbiyachilar, yirik fozil-u ulamolar ustozligida harbiy ta'lim, fiqh ilmi, arab va fors tillarini o'rganadi, ko'plab tarixiy va adabiy asarlar mutolaa qiladi, ilm-fanga, she'riyatga qiziqqa boshlagani hamda uning ilmiy merosining bugungi ahamiyati to'g'risida chuqur mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur ilmiy merosi, ilm-fan taraqqiyoti, milliy madaniyatimiz, Boburning adabiyotga va she'riyatga qiziqishi, "Aruz", "Boburnoma", o'zbek klassik adabiyoti.

Abstract: This article discusses the role of Babur's scientific heritage in the development of science today. Zahiriddin Muhammad Babur was a person who was thirsty for knowledge from his youth and stood out among his peers. Like all Timurid princes, Babur studied military education, jurisprudence, Arabic and Persian under the guidance of special educators and great scholars, read many historical and literary works, became interested in science and poetry, and made deep reflections on the importance of his scientific heritage today.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur's scientific heritage, the development of science, our national culture, Babur's interest in literature and poetry, "Aruz", "Boburnoma", Uzbek classical literature.

Аннотация: В статье рассматривается роль научного наследия Бабура в развитии современной науки. Захириддин Мухаммад Бабур был человеком, который с юных лет жаждал знаний и выделялся среди своих сверстников. Как и все принцы Тимуридов, Бабур изучал военное образование, юриспруденцию, арабский и персидский языки под руководством особых педагогов и великих ученых. Он прочитал много исторических и литературных произведений, заинтересовался наукой и поэзией, и важность его научного наследия сегодня очевидна. По этому поводу были высказаны глубокие размышления.

Ключевые слова: научное наследие Захириддина Мухаммада Бабура, развитие науки, наша национальная культура, интерес Бабура к литературе и поэзии, «Аруз», «Бабур-наме», узбекская классическая литература.

Kirish. Har bir xalqning ulug'vorligini va nafosatini belgilab beruvchi tarixiy shaxslari bo'ladi. Ana shunday shaxslardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. O'zbek klassik

adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur qisqa vaqt umr ko'rishiga qaramasdan o'zidan juda katta ijodiy, ma'rifiy, ilmiy meros qoldirishga ulgurdi. U yaratgan solnomalar juda katta qismnitashkil etgan bo'lsa-da, bizgacha ulardan ma'lum bir qismigina yetib keldi. Ko'plab tarixiy, siyosiy, bosqinchilik davrlaridan omon kelgan asarlariga shikast yetkazildi; zarar beradigan darajada zarar yetkazildi, ming afsuslar bilan aytamizki, batamom yo'q bo'ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat va siyosat arbobi, mohir sarkarda ham sanaladi. U keng dunyoqarashi va komil aql-zakovati bilan Hindistonda ma'rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo'lsa, "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalaridan sanaladi. "Mubayyin", "Harb ishi", "Xatti Boburiy" asarlari va "Aruz" risolasi islom qonunshunosligi, harb san'ati, nafis san'at, she'riyat va til nazariyasi sohalari rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston, va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti, adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir. Bu asar o'sha davrlardan boshlaboq o'rganila boshlagan edi. Asardagi qimmatli ma'lumotlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Sharq olimlarining diqqat markazida bo'lib kelayotgan ushbu asarning qo'lyozma nusxalari allaqachon izlana boshlagan, g'arb tillarining deyarli barchasiga tarjima qilinib ulgurdi. Asarning qo'lyozma nusxalarini topish, nashrga tayyorlash va dunyo ko'z o'ngiga olib chiqish uchun o'zining beqiyos xizmatlarini ayamagan turkolog N.I. Ilminskiyning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bundan tashqari ingliz orietalistlaridan A. Beverij xonimning xizmatlari ham quvonarli darajada. Umuman olganda, asarni qo'lyozma nusxalarini topish, puxta o'rganish, nashrga tayyorlash, kitob holiga keltirish osonlikcha amalga oshmadi. Manbalarga qaraganda, XX asrning ikkinchi yarimlariga kelibgina kitob holiga keltirildi. Javoharlar Neru o'zining "Hindistonning kashf etilishi" kitobida: "Bobur dilbar shaxs edi. Uyg'onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo'lib, san'atni, adabiyotni, go'zallikni sevardi", deb yozgan. "Boburnoma" o'zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko'plab ma'lumotlar jamlangan. Asar uch qismdan iborat bo'lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan hodisalarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarini o'z ichiga oladi. "Boburnoma" – 1500 ga yaqin tarixiy shaxs hamda o'simlik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan qomusiy asar bo'lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan. Muxtasar aytganda, "Boburnoma" o'quvchiga Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o'sha

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi. “Boburnoma”ning tarjima qilgan ingliz olimi Uilyam Erskin: “Osiyoda saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fanga, san’atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanishi jihatidan Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”. Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g’oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni olg’a suradi. Uning ijodida, xususan, she’riyatida ona yurtning chin dildan qo’msash, uning tuprog’iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yorug’likni sog’inchi katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida ro’y bergan keskinliklarning, og’ir tushkunliklarning ruhiyatga ta’siri, Vatan sog’inchi, unga qaytish umidi she’rlarida mohirona tarzda aks etgan:

*Tole’ yo’qi jonimg’a balolig’ bo’ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig’ bo’ldi.*

*O’z yurtning qo’yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, bu ne yuz qarolig’ bo’ldi?!*

Shuningdek, Bobur o’z she’rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolatga, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg’ularni qadrlashga chaqiradi: Boburning 1522 yilda o’g’li Humoyunga atab yozilgan “Mubayyin” nomli asari o’sha davr soliq tizimiga doir shar’iy qonun-qoidalar bayoniga bag’ishlangan. Mumtoz adabiyotshunoslik qoidalariga bag’ishlangan “Aruz risolasi”da esa 537 ta she’rni tahlil qilgan. “Xatti Boburiy” deb atalgan risolasida arab alifbosi ta’limi turkiy tillar, xususan, o’zbek tili asosida birmuncha soddalashtirib berilgan. Shoir Qur’oni karimni o’zi ishlab chiqqan “Xatti Boburiy” alifbosida ko’chirtirgan. Bobur she’riyatida ko’pchilik mutafakkirlar asarlariga xos bo’lgan jihat yaqqol namoyon etilgan – insonning axloqi va barkamolligi masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Shoir inson qadrini ko’tarib, unga ulkan hurmat bilan munosabatda bo’lishni yoqlaydi. Buning ziddi bo’lgan sifatlarni qoralaydi. Boburning fikricha, xudbinlik, izzattalablik, baxillik, manmanlik noqobil sifatlardir. Shoir ruboiylarida insonning ma’naviy tarbiyasi haqida qimmatli maslahatlar beradi. Bobur ko’z o’ngida yuz berayotgan voqea va hodisalarni ziyraklik bilan kuzatgan. O’zini qiynagan his-tuyg’ularni chuqur tanqidiy tahlil qilib, ularni yaxshilik va adolat, haqiqat va go’zallik tamoyillariga xizmat qilishga yo’naltira olgan.

Adabiyot, tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo’lgan Bobur doim olimu fozillar davrasida bo’lgan, ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko’rsatib, homiylik (metsenatlik) qilgan. Shu sababdan bo’lsa kerak, ingliz tarixchisi Eduard Xolden unga “Bobur fe’li-saviyasiga ko’ra Sezarga qaraganda suyuqlik bo’lishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo’yilgan”, deb ta’rif bergan. Mirzo Muhammad Haydar esa “Tarixi Rashidiy” asarida bunday yozadi: “U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga ega bo’lgan bir podshoh edi. Barcha fazilatlar orasida shijoat va

muruvvati ustunroq turardi. Turkiy she'ri Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas". Ijod va san'at odamlariga bunday mehrli munosabat bejiz emas edi, albatta. Boburning o'zi tabiatan ijodkor bo'lgan. Navqironlik yillaridan umrining oxirigacha ijod bilan shug'ullangan. Hech bir sharoit va vaziyatda ijoddan to'xtamagan, natijada avlodlarga har jihatdan takomilga yetkazilgan boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan. Bobur buyuk sarkarda bo'libgina qolmay, o'zining mashhur asarlari bilan keng fikrli tarixnavis, yetuk adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan katta olim sifatida dunyo ilm-fani ravnaqi va ma'naviy-ma'rifiy rivojida munosib o'rin egallaydi.

Mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, shoir tug'ilgan kun - 14-fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo'ylab adabiyot va ilm-ma'rifat bayrami sifatida nishonlanmoqda. Boburshunoslik sohasida ko'plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o'tkazilmoqda. Keyingi yillarda Toshkent va Andijon shaharlarida Bobur Mirzoning muazzam haykallari o'rnatilgani, uning tug'ilib o'sgan yurti - Andijon shahrida Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va uning tasarrufidagi "Bobur va jahon madaniyati" kitob muzeyi faoliyat ko'rsatayotgani, "Bobur ensiklopediyasi", "Bobur kulliyoti", "Babur. Baburidi. Bibliografiya" deb nomlangan salmoqli asarlarning nashrdan chiqarilgani, "Bobur va dunyo" jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida e'tirof etildi. Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga - Uchinchi Renessans davriga qadam qo'yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o'rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk ajdodimiz asarlarining milliy va umuminsoniy mohiyatini, uning yosh avlodimiz intellektual va ma'naviy salohiyatini oshirish, farzandlarimizni shu asosda Yangi O'zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o'rni va ta'sirini inobatga olib, Bobur Mirzoning ilmiy va ijodiy merosini mamlakatimiz va xalqaro miqyosda yanada chuqur o'rganish va targ'ib etish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Madaniyat va turizm vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda jamoatchilik vakillarining 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi taklifi ma'qullandi. Shuningdek bir hafta muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini nishonlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin. Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin: mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog'liq obida va qadamjolarini, jumladan yodgorlik majmualarini ta'mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; Bobur Mirzo merosiga mansub qo'lyozma, qadimiy kitoblar, san'at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit

yaratish; xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo'lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O'zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish; kabi ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichidagi bu katta yutuqlar O'zbekistonni dunyo boburshunosligining markaziga aylanishiga xizmat qildi. Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma'nan yaqinlashdi. Barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga nisbatan qomus, ya'ni "Bobur ensiklopediyasi" yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o'zbek boburshunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o'rganib kelayotgan yaponiyalik boburshunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga "butun dunyo boburshunoslari uchun muhim qo'llanma bo'ladi" deya baho berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Hasanov. Boburning «Risolayi aruz» asari. -T.:1986;
2. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996;
3. G'aybulloh as-Salom, N.Otajon. Jahongashta «Boburnoma». — T.:1996;
4. U.Erskin. Hindistonda Bobur davlati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.). — T.: 1997: 5. R.Sharma. Boburiylar saltanati (Ingliz tilidan G'.Sotimov tar.). -T.: 1999.
6. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008y.
7. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.-T.: O'zbekiston,
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida "gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz
9. A.A.Madramimov. Temuriylar va Boburiylar davri miniatyura san'ati rivoji. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Temuriylar tarixi davlati muzeyi. – Toshkent: 2019 yil. 101-110-betlar.
10. Shohalil Shoyoqubov. Zamonaviy O'zbekiston miniatyurasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2006 yil.
11. A.A.Madramimov. Alisher Navoiy badiiy asarlarining 15-16-asrlardagi qo'lyozmalari. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. –Toshkent: 2021 yil. 38-39-betlar.
12. Elmira Ismoilova. Sharq miniatyura maktablari. – Toshkent: G.G'ulom nashryoti, 1989 yil. 40-41-betlar
13. A.Madaminov, N.Normatov. Sharq miniatyura maktablari (maqolalar to'plami). – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989 yil. 41-42- betla